



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamov Amriddin Xamdam o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Икрамова Нодира Бурхон кизи	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	



TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Aminova Mehriniso Erkinjonovna
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlashning tashkiliy va huquqiy asoslari tadqiq etilgan. Kreditga layoqatlilikni baholash, kredit tarixi va skoring tizimlaridan foydalanish, kredit risklarini boshqarish hamda kredit portfelini monitoring qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda jismoniy shaxslarni kreditlashni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar, raqamli kreditlash vositalari va kredit byurolari faoliyati tahlil qilingan. Xalqaro amaliyotdagi mas'uliyatli kreditlash yondashuvi hamda Bazel qo'mitasining kredit risklarini boshqarish tamoyillarining milliy bank tizimidagi ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslar, tijorat banklari, kreditlash, kredit riski, kreditga layoqatlilik, kredit skoringi, kredit tarixi, kredit byurolari, mas'uliyatli kreditlash, raqamli kreditlash, kredit portfeli, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация. В статье исследованы организационные и правовые основы кредитования физических лиц в коммерческих банках. Освещены вопросы оценки кредитоспособности, использования кредитной истории и скоринговых систем, управления кредитными рисками, а также мониторинга кредитного портфеля. Кроме того, проанализированы правовые механизмы регулирования кредитования физических лиц в Узбекистане, инструменты цифрового кредитования и деятельность кредитных бюро. Обоснована значимость подхода ответственного кредитования, применяемого в международной практике, а также принципов Базельского комитета по управлению кредитными рисками для национальной банковской системы.

Ключевые слова: физические лица, коммерческие банки, кредитование, кредитный риск, кредитоспособность, кредитный скоринг, кредитная история, кредитные бюро, ответственное кредитование, цифровое кредитование, кредитный портфель, финансовая стабильность.

Abstract. The article examines the organizational and legal foundations of lending to individuals in commercial banks. It covers issues related to creditworthiness assessment, the use of credit histories and scoring systems, credit risk management, as well as credit portfolio monitoring. In addition, the article analyzes the legal mechanisms regulating lending to individuals in Uzbekistan, digital lending tools, and the activities of credit bureaus. The importance of the responsible lending approach applied in international practice, as well as the Basel Committee's principles for credit risk management, for the national banking system is substantiated.

Keywords: individuals, commercial banks, lending, credit risk, creditworthiness, credit scoring, credit history, credit bureaus, responsible lending, digital lending, credit portfolio, financial stability.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy shaxslarni kreditlash tijorat banklarining eng muhim faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanib, aholining iste'mol va investitsiya ehtiyojlarini moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ichki talabni kengaytirish hamda moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda aholi daromadlari tarkibi, raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi va banklar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi jismoniy shaxslarni kreditlash munosabatlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.



O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarni kreditlashda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Markaziy bank to'g'risida»gi, «Iste'mol krediti to'g'risida»gi, «Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida»gi qonunlar, shuningdek Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ushbu huquqiy asoslar kredit munosabatlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilashda, kredit shartnomalarining qonuniyligini ta'minlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda bank tizimi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shiddatli iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida mamlakatimizda bank sohasini isloh qilishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlari jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotiga yangi institutsional mexanizmlarni joriy etish imkonini beradi. Xususan, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, masofaviy identifikatsiya, kredit byurolari faoliyatini takomillashtirish, elektron hukumat platformalari bilan integratsiya qilish hamda kreditlash jarayonini raqamlashtirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar kredit xizmatlarining ommabopligi va shaffofligini sezilarli oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlarning nazariy yondashuvlari shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarni kreditlash faqat mablag' ajratish jarayoni emas, balki huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va axborot infratuzilmalarining o'zaro integratsiyasiga asoslangan murakkab boshqaruv tizimidir. Shu bois kredit munosabatlarining samaradorligi kredit shartnomasining huquqiy mustahkamligi, qarz oluvchining moliyaviy holatini obyektiv baholash va kredit risklarini doimiy monitoring qilish darajasi bilan belgilanadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlar E.J.Dolan va K.D.Kempbellning fikriga ko'ra, «jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar aholiga uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlarini sotib olish uchun ajratiladigan kreditlar» hisoblanadi [1].

D.Sinki jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlarni «shaxsiy xaridlarni amalga oshirish yoki xizmatlar haqini to'lash maqsadida jismoniy shaxsga ajratiladigan kredit» sifatida izohlaydi [2].

Mazkur masala yuzasidan G.N. Beloglazova va L.P. Krolivetskayaning ilmiy qarashlariga ko'ra, jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar jismoniy shaxslar (iste'molchilar)ga shaxsiy, oilaviy hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ehtiyojlarini qondirish, jumladan, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish uchun ajratiladigan kreditlarni anglatadi [3].

Boshqa bir iqtisodchi olim E.F.Jukovning ta'kidlashicha, «jismoniy shaxslarni kreditlash -bu bank tomonidan aholining turmush sharoitini yaxshilash, qimmatbaho iste'mol tovarlarini sotib olish va boshqa ehtiyojlarni moliyalashtirish maqsadida ajratiladigan kreditlar»dir [4].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlardan ko'rinadiki, xorijiy iqtisodchi olimlar jismoniy shaxslarni kreditlash tushunchasini, asosan, aholining shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarini moliyalashtirish bilan bog'laydilar. Bunda kreditlarning asosiy xususiyati ularning tadbirkorlik faoliyatidan tashqari maqsadlarga yo'naltirilishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ayrim olimlar kreditlarning iste'mol tovarlari va xizmatlarini xarid qilishga yo'naltirilishini alohida ta'kidlasalar, boshqalari jismoniy shaxslarning turmush sharoitini yaxshilash bilan bog'liq kengroq ehtiyojlarini ham ushbu tushuncha doirasida ko'rib chiqadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlashning tashkiliy va huquqiy asoslari tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Jismoniy shaxslarni kreditlashning Bazel bank nazorati qo'mitasi tomonidan kredit xavfini boshqarish tamoyillari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro bank amaliyotida kredit munosabatlari «Responsible Lending» (mas'uliyatli kreditlash) konsepsiyasi asosida tashkil etiladi. Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Kanada va Avstraliyada kredit tashkilotlari mijozning to'lov qobiliyatini har tomonlama baholash, uning qarz yuki koeffitsiyentini hisoblash, kredit tarixi va daromad manbalarini kompleks tahlil qilish orqali kredit qarorini qabul qiladi. Bu esa ortiqcha qarzдорlikning oldini olish va iste'molchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Kredit litsenzyasi egalari 2009-yilda qabul qilingan «Iste'molchilar kreditlarini milliy himoya qilish to'g'risida»gi Qonun (National Consumer Credit Protection Act 2009)ning 3-bobida belgilangan mas'uliyatli kreditlash (Responsible Lending) bo'yicha majburiyatlarga qat'iy rioya etishlari lozim. Mazkur majburiyatlarning asosiy tamoyili shundan iboratki, kredit tashkiloti iste'molchining moliyaviy holati va to'lov qobiliyatiga mos



kelmaydigan kredit shartnomasini tuzmasligi, bunday kreditni taklif etmasligi hamda iste'molchining mazkur kreditni rasmiylashtirishiga ko'maklashmasligi kerak. Bu talablarning asosiy maqsadi aholini ortiqcha qarz yukidan muhofaza qilish, kredit munosabatlarida shaffoflikni ta'minlash va moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlashdan iborat.

Shu munosabat bilan kredit litsenziyasi egasi mas'uliyatli kreditlash majburiyatlarini amalda qanday tartibda bajarishini mustaqil ravishda belgilashi, kredit ajratish jarayonida qarz oluvchining daromadlari, xarajatlari, moliyaviy majburiyatlari va kreditni qaytarish imkoniyatlarini har tomonlama baholashga qaratilgan samarali ichki mexanizmlarni joriy etishi talab etiladi. Bunday yondashuv kredit risklarini kamaytirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda kredit portfelining sifatini oshirishga xizmat qiladi [5].

Xalqaro tajribaning yana bir muhim jihati kredit byurolari faoliyatining yuqori darajada rivojlanganligidir. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda CRIF Uzbekistan tomonidan taklif etilayotgan analitik yechimlar moliyaviy ma'lumotlarni oddiy tahlil qilish bilan cheklanib qolmasdan, ulardan kredit risklarini baholash, mijozlarning kreditga layoqatligini prognoz qilish va boshqaruv qarorlarini tezkor hamda asoslangan tarzda qabul qilish uchun samarali instrument sifatida foydalanish imkonini yaratmoqda. Bu esa banklarda qaror qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash, defolt ehtimolini pasaytirish va risklarni erta aniqlash tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur analitik platformalarning samaradorligi O'zbekistonning qator tijorat banklarida, jumladan TBC Bank, Ipoteka Bank va SQB faoliyatida o'z tasdig'ini topgan bo'lib, ular kredit qarorlarining aniqligini oshirish, operatsion samaradorlikni yuksaltirish hamda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu tizim orqali qarz oluvchilarning kredit intizomi baholanadi, defolt ehtimoli prognoz qilinadi va kredit qarorlarining sifatini oshirishga erishiladi.

O'zbekistonda ham kredit axboroti infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirildi. Xususan, kredit byurolari tomonidan shakllantiriladigan kredit tarixi ma'lumotlari banklar uchun asosiy axborot manbalariga aylandi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarning o'z xohishiga ko'ra kredit shartnomasi tuzishni vaqtincha cheklash imkoniyatini beruvchi Kredit bitimini tuzish taqiqlangan shaxslar reyestrining tashkil etilishi milliy kredit bozorida yangi huquqiy institut sifatida shakllandi. Ushbu mexanizm shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish, soxta kredit rasmiylashtirish va raqamli firibgarlik holatlarini bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

Bazel bank nazorati qo'mitasi tomonidan kredit xavfini boshqarish tamoyillari hamda kredit infratuzilmasini rivojlantirishga oid tavsiyalarida kredit qarorlarini qabul qilishda riskka asoslangan yondashuv, kredit tarixining ishonchligi, ma'lumotlar almashinuvi tizimlari va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish bank tizimi barqarorligining muhim sharti sifatida baholanadi.

Qo'mita tomonidan kredit risklarini boshqarish tamoyillari qayta tahrir qilinib, ularda banklar tomonidan risk appetiti, istiqbolga yo'naltirilgan (forward-looking) yondashuv, makroiqtisodiy omillarni hisobga olish hamda kredit risklarini boshqarish ustidan kuzatuv kengashining mas'uliyati yanada kuchaytirildi.

Bazel bank nazorati qo'mitasining 1-tamoyiliga ko'ra, bank kuzatuv kengashi kredit risklari strategiyasi va uni boshqarish siyosatiga mas'ul bo'lib, ularni kamida yiliga bir marta qayta ko'rib chiqishi lozim. Strategiya bankning risk appetiti, barqaror daromadlilik maqsadlari, bozor sharoitlari, makroiqtisodiy omillar hamda istiqbolga yo'naltirilgan prognoz ma'lumotlarini hisobga olishi zarur. Bu bankning kredit portfeli sifati va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2-tamoyil. Bankning oliy ijroiya rahbariyati kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kredit risklari strategiyasini amalga oshirish hamda kredit risklarini aniqlash, baholash, monitoring qilish va nazorat qilish bo'yicha ichki siyosat va tartib-taomillarni ishlab chiqish uchun mas'ul hisoblanadi. Ushbu jarayonlar bankning barcha faoliyat yo'nalishlari, alohida kreditlar va kredit portfeli darajasini qamrab olishi lozim.

3-tamoyil. Banklar barcha mahsulotlar va faoliyat turlarida mavjud kredit risklarini aniqlashi va samarali boshqarishi lozim. Yangi joriy etiladigan mahsulot va xizmatlar bo'yicha risklar ular amaliyotga tatbiq etilishidan oldin tegishli risklarni boshqarish tartib-taomillari asosida baholanishi hamda kuzatuv kengashi yoki uning vakolatli qo'mitasi tomonidan oldindan tasdiqlanishi zarur.

4-tamoyil. Banklar kredit ajratishda aniq belgilangan va asoslangan mezonlarga amal qilishi lozim. Ushbu mezonlar bankning maqsadli mijozlar segmentini, qarz oluvchi yoki kontragentning risk profili va moliyaviy holatini, kreditning maqsadi, tuzilishi hamda qaytarish manbalarini har tomonlama baholashni nazarda tutadi.

5-tamoyil. Banklar alohida qarz oluvchilar, kontragentlar hamda o'zaro bog'liq kontragentlar guruhlar uchun umumiy kredit limitlarini belgilashi lozim. Ushbu limitlar bank portfeli va savdo portfeli, shuningdek balansda aks ettirilgan va balansdan tashqari joylashgan barcha kredit tavakkalchiligi hajmini kompleks tarzda qamrab olishi lozim.



6-tamoyil. Banklar yangi kreditlarni tasdiqlash, mavjud kreditlarga o'zgartirish kiritish, ularni yangilash va qayta moliyalashtirish bo'yicha aniq belgilangan tartib-taomillarga ega bo'lishi lozim. Bunda qarz oluvchilar yoki kontragentlarning risk profili va moliyaviy xususiyatlari to'liq baholanishi va chuqur o'rganilishi zarur.

7-tamoyil. Barcha kreditlar mustaqil tijorat tamoyillari asosida ajratilishi lozim. Bank bilan bog'liq shaxslar va tashkilotlarga beriladigan kreditlar alohida tartibda tasdiqlanishi, kuchaytirilgan monitoring qilinishi hamda manfaatlar to'qnashuvidan kelib chiqadigan risklarni cheklash choralari qo'llanilishi kerak.

8-tamoyil. Banklarda kredit risklarini o'z ichiga olgan barcha portfellarini boshqarish va ularning holatini uzluksiz monitoring qilishga xizmat qiluvchi samarali kredit ma'muriyatchiligi tizimi shakllantirilishi zarur.

9-tamoyil. Banklar barcha kredit ekspozitsiyalarini (jumladan, balansdan tashqari va qayta tuzilgan aktivlarni) baholash, tasniflash va monitoring qilish, shuningdek, ehtimoliy yo'qotishlar uchun yetarli zaxiralarni shakllantirishga oid aniq siyosat, jarayon va uslubiyatlarga ega bo'lishi lozim.

10-tamoyil. Banklar kredit risklarini boshqarishda ichki risk reyting tizimini ishlab chiqishi va undan foydalanishi tavsiya etiladi. Bunda reyting tizimi bank faoliyatining xususiyati, ko'lam va murakkablik darajasiga muvofiq shakllantirilishi zarur.

11-tamoyil. Banklar balans ichidagi va balansdan tashqari barcha operatsiyalar bo'yicha kredit risklarini baholash imkonini beruvchi axborot tizimlari hamda tahliliy usullarga ega bo'lishi kerak. Boshqaruv axborot tizimi kredit portfelinin tarkibi va risklar konsentratsiyasi to'g'risida yetarli ma'lumotlarni ta'minlashi kerak.

12-tamoyil. Banklar alohida kreditlar va kredit portfelinin baholashda joriy hamda istiqboldagi bozor va makroiqtisodiy omillarni inobatga olishi, shuningdek, stress-senariylar sharoitida kredit risklari darajasini baholashi zarur.

13-tamoyil. Banklar kredit risklarini boshqarish jarayonlarini mustaqil va doimiy baholash tizimini shakllantirishi, baholash natijalari esa to'g'ridan-to'g'ri kuzatuv kengashi va yuqori boshqaruvga taqdim etilishi kerak.

14-tamoyil. Banklar kredit ajratish jarayonining samarali boshqarilishini hamda kredit ekspozitsiyalarini prudensial me'yorlar va ichki limitlarga muvofiq bo'lishini ta'minlashi kerak. Shuningdek, ichki siyosat, tartib-taomillar va limitlardan chetga chiqish holatlari o'z vaqtida aniqlanib, tegishli boshqaruv darajasiga xabar qilinishi uchun samarali ichki nazorat tizimi joriy etilishi lozim.

15-tamoyil. Banklar sifati yomonlashayotgan kreditlarni erta aniqlash, muammoli kredit ekspozitsiyalarini samarali boshqarish hamda ularni qayta tiklash choralari amalga oshirish tizimini joriy etishi kerak.

16-tamoyil. Bank nazorati organlari banklarda kredit risklarini, shu jumladan bitimning ikkinchi tomoni o'z majburiyatlarini bajarmasligi bilan bog'liq risklarni aniqlash, o'lchash, baholash, kuzatib borish, hisobot yuritish va kamaytirishga qaratilgan samarali tizimning mavjudligini ta'minlashi kerak. Shuningdek, ular bankning kredit ajratish siyosati, tartib-taomillari va kredit portfelinin boshqarish amaliyotini mustaqil baholashi hamda alohida mijoz yoki o'zaro bog'liq mijozlar guruhiga to'g'ri keladigan risk darajasi uchun ehtiyotkorlik me'yorlariga muvofiq cheklovlarni belgilashi zarur [6].

Ushbu tamoyillarni milliy bank tizimi amaliyotiga tatbiq etish O'zbekiston bank tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishning muhim metodologik asosi hisoblanadi.

Chunki jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotida kredit risklarini samarali boshqarish bank aktivlari sifati, kredit portfelinin barqarorligi va moliyaviy yo'qotishlarni cheklashning muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu tamoyillarni joriy etish bank daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu borada mamlakatimizda so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotida kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiluvchi yangi huquqiy mexanizmlar joriy etildi. Jumladan, jismoniy shaxslarning o'z xohishiga ko'ra kredit bitimini tuzishni cheklash huquqini ta'minlash maqsadida kredit bitimini tuzish taqiqlangan shaxslar reyestri tashkil etildi. Ushbu reyestr kredit byurolari tomonidan yagona elektron ma'lumotlar bazasi asosida yuritilib, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari hamda kredit shartnomasi tuzishni taqiqlash yoki mazkur taqiqni bekor qilish haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur institutning joriy etilishi jismoniy shaxslarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish holatlarining oldini olish hamda firibgarlik orqali rasmiylashtirilishi mumkin bo'lgan kreditlarni barvaqt cheklashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur mexanizm banklar uchun qo'shimcha risk-monitoring vositasi vazifasini bajaradi va kredit qarorlarining ishonchligini oshiradi.

Kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki uni bekor qilish bo'yicha murojaatlar davlat xizmatlari markazlari, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDXP) hamda kredit byurolarining elektron platformalari orqali



qabul qilinadi. Ariza beruvchining shaxsi elektron identifikatsiya vositalari orqali tasdiqlanadi va ma'lumotlar kredit byurosining axborot tizimiga real vaqt rejimida kiritiladi. Natijada kredit tashkilotlari kredit shartnomasi tuzilishidan oldin mazkur reyestr ma'lumotlarini tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kredit byurolari ushbu reyestri yuritish bilan bir qatorda, jismoniy shaxslarning kredit tarixi ma'lumotlarini ham muntazam yangilab boradi. Reyestrda kiritish yoki undan chiqarish sanasi, ariza vaqti va taqiqlarning amal qilish holati kredit tarixining ajralmas qismi sifatida aks ettiriladi. Bu esa kredit tashkilotlariga qarz oluvchining moliyaviy faoliyatini kompleks baholash hamda kredit risklarini aniqlash imkonini beradi.

Jismoniy shaxslarni kreditlashning tashkiliy asoslari kredit arizasini qabul qilish, qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash, kredit scoringini amalga oshirish, kredit tarixini tahlil qilish, ta'minotni baholash, kredit bo'yicha qaror qabul qilish, mablag'ni ajratish va keyingi monitoring bosqichlarini qamrab oladi. Ushbu jarayonlarning barchasida axborot tizimlari, kredit byurolari ma'lumotlari, scoring modellari hamda ichki risk-menejment siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kreditlash munosabatlarida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, xizmat sirini saqlash va axborot xavfsizligini ta'minlash ustuvor talablar hisoblanadi. Kredit byurolari va davlat xizmatlari markazlari o'z faoliyati davomida olingan ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlashi, ulardan faqat qonunchilikda belgilangan maqsadlarda foydalanishi shart. Bu esa bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va raqamli moliyaviy xizmatlarning xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotida kredit risklarini samarali boshqarish tijorat banklarining barqaror faoliyatini ta'minlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirishda risklarni o'z vaqtida aniqlash, ularni kompleks baholash, muntazam monitoring qilish va salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan zamonaviy mexanizmlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro bank amaliyotida shakllangan yondashuvlar, xususan, Bazel qo'mitasining kredit risklarini boshqarish bo'yicha tamoyillarini milliy amaliyotga moslashtirib joriy etish banklarda risklarni boshqarish sifatini oshirish, kreditlash jarayonining samaradorligini ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa jismoniy shaxslarni kreditlash tizimida mas'uliyatli kreditlash tamoyillarini rivojlantirish, muammoli kreditlar yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish hamda bank tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun zarur institutsional asoslarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Долан Э. Дж., Кэмпбелл К. Д., Кэмпбелл Р. Дж. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика: пер.с англ. / Э. Дж. Долан, К. Д. Кэмпбелл, Р. Дж Кэмпбелл. — СПб., 2005.
2. Синки Дж. Управление финансами в коммерческих банках.: пер. с англ. / под. ред. Р. Я. Левиты, Б.С. Пинскера. - М.: Catalaxy, 1994. — 854 с.
3. Банковское дело: учебник / под ред. Белоглазовой Г.Н., Кроливецкой Л.П. -М.: Финансы и статистика, 2010. -592 с.
4. Банковское дело: учебник / под ред. Е.Ф. Жукова, Н.Д. Эриашвили. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: ЮНИТИ, 2014. – 687 с.
5. Australian Securities and Investments Commission (ASIC). *Responsible lending*. <https://www.asic.gov.au/regulatory-resources/credit/responsible-lending/>
6. Basel Committee on Banking Supervision. (2025). Principles for the management of credit risk. Bank for International Settlements. <https://www.bis.org/bcbs/publ/d595.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>